**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**
**"Menejment" kafedrasi**
**"Korporativ boshqaruv" fanidan 2025/2026-o'quv yili kuzgi semestrida yakuniy imtihon (test) da tushadigan savollar ro'yxati**

1. Korporativ boshqaruvning vujudga kelishiga asosiy sabab qaysi?
2. Quyidagilardan qaysi biri korporativ boshqaruvning asosiy maqsadi hisoblanadi?
3. Ochiq aksiyadorlik jamiyatining asosiy ustunligi nimada?
4. Korporativ moliya qaysi konsepsiyalarga tayanadi?
5. Korporativ moliya bevosita korporativ tuzilmalar faoliyatida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni qamrab oladi. Ushbu fikr muallifi kim?
6. Moliya tarkibiy qismi ?
7. Mamlaktimizda moliyaviy iqtisodiyot tushunchasi o`rnida ko`p hollarda qaysi tushuncha qo`llaniladi?
8. Davlat va korporativ tuzilmalar o`rtasidagi moliyaviy munosabat nimalarni o`z ichiga oladi?
9. Korporativ tuzilmalar va davlat o`rtasidagi o`zaro munosabatlar tizimi davlat ishtirokiga qarab qaysi guruhlarga ajraladi ?
10. Yopiq aksiyadorlik jamiyatiga xos bo'lgan belgi qaysi?
11. Qachondan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari nomlarida "davlat" so`zidan foydalanish ta`qiqlandi?
12. Nima ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ulushini saqlab qolish vositasi hisoblanadi?
13. Oltin aksiya amaliyoti asoschisi kim?
14. Yevropa arbitaj sudi oltin aksiya amaliyotini nechinchi yilda bekor qildi?
15. Nima qiymatga ega bo`lmaydi, boshqa shaxsga o`tkazilmaydi hamda garovga berilmaydi?
16. Oltin aksiya davlat ulushi jamiyat ustav kapitalining nechi foizidan oshmagan holda joriy etilishi mumkin ?
17. Korporativ boshqaruvda manfaatdor tomonlar (stakeholders) kimlar?
18. Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga davlat vakili nechi yil muddatga tayinlanadi?
19. Qaysi tamoyil barcha aksiyadorlar huquqlarining tengligini ta'minlaydi?
20. Qaysi holat korporativ boshqaruv samaradorligini pasaytiradi?
21. O`zbekiston korxonalarida korporativ menejmentni shakllantirish uchun shart-sharoitlar qachon boshlangan?
22. XVIII asrda Ost-Ind kompaniyasi nechi a`zodan iborat bo'lgan?
23. "Zamonaviy korporatsiya va xususiy mulkdor" nomli maqola muallifi kim?
24. Korporatsiya so`zi qaysi tildan olingan?
25. Corporate governance atamasi nima ma`noni anglatadi?
26. Korporativ birlashmalar turi?
27. Korporativ boshqaruvning eng asosiy tamoyili qaysi?
28. Qaysi nuqtai nazardan qaraganda korporativ boshqaruv kengash faoliyati va uning aksiyadorlar, menejerlar, tashqi auditorlar bilan aloqadorligini nazarda tutatadi?
29. Qaysi nuqtai nazardan korporativ boshqaruv tuzilmasi tashkilotdagi turli xil ishtirokchilar o`rtasidagi huquq va majburiyatlarini belgilab beradi?
30. Korporativ boshqaruv subyekti qaysi?
31. Umumiy holda munosabatga kirushuvchi 1-navbatdagi subyekt qaysi?

32. Korporativ boshqaruvda eng asosiy subyektlar shubhasiz aksiyadorlar va ulardir. Ular kimlar?
33. Agentlik nazariyasining shakllanishiga asosiy sabab nima?
34. Korporativ boshqaruvning prinsiplari qaysilar?
35. Korporativ boshqaruvda qaysi modellar bir-biriga yaqin?
36. Anglo-amerika modeli qaysi davlatlarda keng qo`llaniladi?
37. Qaysi modelda korporativ boshqaruv ishtirokchilari direktorlar, boshqaruvchilar, aksiyadorlar, birjalar hisoblanadi?
38. Anglo-amerika modeli qo`llaniladigan mamlakatlarda korporativ tuzilmalar kapitali qay holatda bo`ladi?
39. Anglo-amerika modelida kengash a`zolari o`rtacha nechi kishidan iborat bo`ladi?
40. Anglo-amerika modeliga tayangan direktorlar kengashida 2 tipdagi qo`mitalar tashkil etiladi. Qaysilar?
41. Direktorlar kengashi va ijrochi direktor vakolatlari qat`iy tartibda ajratilgan. Bu amaliyot 1-marta qaysi korporatsiya tomonidan qo`llanilgan?
42. Jahon moliyaviy inqirozi nechinchi yilda bo`lgan?
43. German modeli yana qaysi nom bilan ataladi?
44. Shartnomalar nazariyasining asosiy vazifasi nimadan iborat?
45. Tashqi aksiyadorlar va individual investorlarning roli qaysi boshqaruv modelida minimal bo`ladi?
46. German modelida kuzatuv kengashi a`zolari soni nechta bolishi kerak?
47. Korporativ boshqaruvning german modelida direktorlar kengashi nechi palatali?
48. German modelida kuzatuv kengashi ijroiya organi a`zolarini nechi yillik muddatga saylaydi?
49. Yapon modeli yana qaysi nom bilan ataladi?
50. Yaponiya va Germaniyada qaysilar eng yirik aksiyadorlar hisoblanadi?
51. Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida korporativ boshqaruvning qaysi modelidan keng qo`llaniladi?
52. Qaysi mamlakatda biznesning qariyb 75% ga oilaviy biznes guruhlar tomonidan egalik qilinadi?
53. Dunyodagi eng qadimiy oilaviy biznes asosida tashkil etilgan kompaniya nomi nima?
54. Bugungi kunda eng yirik pul tushumiga ega bo`lgan hamda oilaviy biznes asosida faoliyat yuritadigan kompaniya nomi?
55. Korporativ boshqaruvning oilaviy modeli qaysi modelga qarama-qarshi model hisoblanadi?
56. Oilaviy biznes rivojlanishi va uni boshqarish odatda 3ta bosqichga ajratiladi.Ulardan 2-si qaysi bosqich?
57. Oilaviy biznes rivojlanishi va uni boshqarish odatda 3ta bosqichga ajratiladi. Oxirgi bosqich nima deb ataladi?
58. Quyidagilardan qaysi biri korporativ boshqaruv oilaviy modelida boshqaruv institutlaridan biri emas?
59. Birinchi aksiyadorlik jamiyati nomi nima?
60. Birinchi aksiyadorlik jamiyati qachon tashkil topgan?
61. 1844-yilda qaysi davlatda ro`yxatdan o`tmagan kompaniyalarga aksiyalar chiqarishni ta`qiqlovchi 1-qonun qabul qilingan?
62. Nyu-York fond birjasi o`z faoliyatini qachon boshlagan?

63. ….. aksiyadorlik jamiyatining ta`sis hujjati bo`lib , unda firma nomi , joylashuvi va faoliyat sohasi ko`rsatilaadi. Nuqtalar o`rnini to`ldiring.
64. Affillangan shaxslar deganda nimani tushunish mumkin?
65. Jamiyat qay shaklda davlat ro`yxatidan o`tadi?
66. Jamiyat davlat ro`yxatidan o`tkazilgan sanadan e`tiboran ko`pi bilan qancha muddatda barcha hujjatlarni tayyorlashi va aksiyadorlarning umumiy yig`ilishida tasdiqlashi shart?
67. Genuya banki keyingi taraqqiyot bosqichlarida qanday kompaniyalar uchun biznesni tashkil etish namunasi bo`lib xizmat qilgan?
68. Genuya bankida ijroiya organ funksiyalarini bajaruvchi organ qanday nomlangan?
69. Aksiyadorlik jamiyatlari rivojlanishiga yuqori darajada ta`sir ko`rsatgan omil qaysi?
70. Korporativ boshqaruvda eng yuqori boshqaruv organi qaysi?
71. Aksiyadorlar umumiy yig`ilishi har qancha vaqtda o`tkazilishi shart?
72. Qay holatda aksiyadorlar umumiy yig`ilishi o`tkazilmaydi?
73. Aksiyadorlar umumiy yig`ilishini kim olib boradi?
74. Jamiyat ustaviga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tadiqlash kimning vakolat doirasida ?
75. Jamiyatning foyda va zararlarini taqsimlash kimning vakolat doirasida ?
76. Aksiyadorlar umumiy yig`ilishi qaysi masalani kuzatuv kengashi zimmasiga yuklashi mumkin?
77. Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig`ilishlarini chaqirish kimning vakolat doirasida?
78. Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash kimning vakolat doirasida?
79. Aksiyadorlar soni 500 kishidan ortiq bo`lganda kuzatuv kengashining son tartikibi nechtadan kam bo`lmasligi lozim?
80. Aksiyadorlar soni 1000 kishidan ortiq bo`lganda kuzatuv kengashining son tartikibi nechtadan kam bo`lmasligi lozim?
81. Jamiyatning kuzatuv kengashi a`zolari saylovi qay tartibda amalga oshiriladi?
82. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o`tkazilgandan so`ng nechi kun ichida tuziladi?
83. Kuzatuv kengashi Majlisi bayonnomasida nimalar yoritiladi?
84. Xorijiy amaliyotdan direktorlarning qaysi turi faoliyat ko`rsatmaydi?
85. Qaysi turdagi direktor tomonidan kompaniya kundalik faoliyati boshqarib boriladi?
86. Aksiyadorlik jamiyatlari ijroiya organi nima asosida ish yuritadi?
87. Aksiyadorlik jamiyatining kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati kim tomonidan amalga oshiriladi?
88. Aksiyadorlarning umumiy yig`ilishi o`tkaziladigan sanadan 3 ish kuni oldin aksiyadorlik jamiyatlarida nima shakllantiriladi?
89. Aksiyadorlarning umumiy yig`ilishini o`tkazish to`g`risidagi xabar umumiy yig`ilish o`tkaziladigan sanadan kamida nechi kundan kechiktirmay e`lon qilinadi?
90. Kimlar navbatdan tashqari aksiyadorlar umumiy yig`ilishini chaqira oladi?
91. Qaror qabul qilish uchun yetarli ishtirokchilar miqdori nima deyiladi?
92. Aksiyadorlar umumiy yig`ilishida ovoz berish tartibi qaysi prinsip asosida amalga oshiriladi?
93. Aksiyadorlarning umumiy yig`ilishida kun tartibi masalalari bo`yicha ovoz berish nima

orqali amalga oshiriladi?

94. Ovoz berish byulletenlari shakli va matni kim tomonidan tasdiqlanadi?

95. Aksiyadorlar umumiy yig`ilishining ovoz verish yakunlari to`g`risidagi bayonnomasi imzolangandan so`ng kim tomondan imzolanadi?

96. Korporativ boshqaruv tizimini qaysi tashkilotlar mustaqil baholay oladi?

97. Korporativ boshqaruv tizimi nechta baholash yo`nalishga ega bo`lgan savolnoma asosida baholab boriladi?

98. Korporativ boshqaruv tizimini baholashdagi dastlabki baholash yo`nalishi qaysi?

99. Samaradorlikning asosiy muhim ko`rsatkichi qaysi?

100. Samaradorlikning qo`shimcha ko`rsatkichi qaysi?

101. Korporativ boshqaruv tizimini baholashda eng yuqori va eng past ball chegarasi qaysi javobda to`g`ri berilgan ?

102. Korporativ boshqaruv tizimini baholashda eng yuqori ball qaysi yo`nalishga ajratilgan?

103. Korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari qanday holatda qoniqarli hisoblanadi?

104. Korporativ nizolar qamroviga ko`ra nechi turga bo`linadi?

105. Tashqi korporativ nizolar kimlar o`rtasida yuzaga keladi?

106. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati va korporativ boshqaruv amaliyotiga doir masalalar bo`yicha jarayon ishtirokchilari o`rtasida o`zaro kelishuvga erishilmasligi natijasida yuzaga keladigan holat qanday nomlanadi?

107. Korporativ nizolarning qamroviga ko`ra turlari qaysilar?

108. Korporativ munosabatlar ishtirokchilari, ya`ni korporativ tuzilmaning aksiyadorlari, boshqaruv organlari, menejerlari o`rtasidagi nizolar qanday nizolar hisoblanadi?

109. Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to`g`risidagi nizom kim tomonidan tasdiqlanadi?

110. ….. aksiyadorlik jamiyatining nazorat organi bo`lib, moliya-xo`jalik faoliyaati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Nuqtalar o`rnini to`ldiring.

111. Aksiyadorlik jamiyatining bir yillik faoliyati yakunlari bo`yicha kompaniyaning moliya-xo`jalik faoliyatini tekshirish kimning vakolat doirasida?

112. Taftish komissiyasining son tarkibi nechi kishidan iborat bo`ladi?

113. Taftish komissiyasi a`zolari kim tomonidan saylanadi?

114. Taftish komissiyasi a`zolari qancha muddatga saylanadi?

115. Ayni bir shaxs taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket nechi martadan ortiq saylanishi mumkin emas?

116. Taftish komissiyasi a`zolari bir vaqtning o`zida qaysi lavozimlarda ishlashi mumin emas?

117. Ichki audit xizmati aksiyadorlik jamiyatining qaysi bo`g`iniga hisobdordir?

118. Ichki auditni amalga oshirishda amaldagi qonun hujjatlari va tegishli nizom talablariga rioya qilish. Bu ichki audit uchun qay holatda o`rinli?

119. Ichki audit xizmati xodimlari oxirgi o`n yilning kamida ikki yilida qaysi sohada ish stajiga ega bo`lishi lozim?

120. Ichki audit xizmati bevosita kimga bo`ysunadi?

121. Taftish komissiyasi qaysi boshqaruv organiga hisobdor hisoblanadi?

122. Ichki nazorat to`g`risidagi nizom im tomonidan tasdiqlanadi?

123. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning va ichki nazorat tizimining muhim tarkibiy qismlari qaysi javobda berilgan?

124. "Taftish komissiyasi to`g`risida"gi nizom kim tomonidan tasdiqlanadi?

125. Kollegial tamoyili:

126. Taftish komissiyasining xulosalari kim tomonidan tasdiqlanadi?

127. Ichki audit xizmati hisoboti kim tomonidan ma`qullanadi?

128. Qay turdagi aksiyadorlar jamiyatga yetkazilgan zararlarning o`rnini qoplash to`g`risidagi da`vo bilan sudga murojaat qilishlari mumin?

129. Aktivlarning balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining nechi barobaridan ko`p bo`lgan jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi?

130. Axborot siyosatining asosiy prinsiplari?

131. Kompaniya faoliyati to`grisida tarqatilayotgan axborot nechi guruhga bo`linadi?

132. Kompaniya faoliyati to`g`risida tarqatilayotgan axborotning ikkinchi guruhi nima deb ataladi?

133. Korporativ boshqaruvda kuzatuv kengashi , ijroiya organi va nazorat organlarining belgilangan tartibda hisobot berib borishi qaysi prinsipdan kelib chiqadi?

134. Aksiyadorlik jamoyatlarida "axborot siyosati to`g`risida"gi nizom aynan qaysi jihatlarni tartibga soladi?

135. Korporativ axborotlar yagona portali web sayti?

136. Qimmatli qog`ozlar bozori emitenti sifatida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan e`lon qilinadigan muhim faktlar soni nechta?

137. Qimmatli qog`ozlar bozori emitenti sifatida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan e`lon qilinadigan 32-muhim faktning mazmuni nimadan iborat?

138. Qimmatli qog`ozlar bozori emitenti sifatida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan e`lon qilinadigan 1-muhim faktning mazmuni nimadan iborat?

139. Aksiyadorlik jamiyatlarida kichik ulishga ega bo`lgan aksiyadorlar nima deb ataladi?

140. Aksiyadorlik jamiyatlarida yirik ulishga ega bo`lgan aksiyadorlar nima deb ataladi?

141. Aksiyadorlik jamiyatida belgilangan umumiy qoidalarga muvofiq kimlar aksiyadorlar umumiy yig`ilishida ovoz berish huquqiga ega emas?

142. Minoritar aksiyadorlar qo`mitasi a`zolarining soni nimada belgilanadi?

143. Minoritar aksiyadorlar qo`mitasi faoliyaatiga kimlar aralasha olmaydi?

144. Minoritar aksiyadorlarnign qo`mitasi qabul qilingan qarorlar to`g`risida har yili qayerda hisobot beradi?

145. Aksiyadorlarning umumiy yig`ilishida ishtirok etishi va ovoz berishi yig`ilish kun tartibidagi masalalar bo`yicha ovoz berish natijalariga ta`sir o`tkazmaydigan aksiyalar egalari qanday nom bilan ataladi?

146. Aksiyadorlarning umumiy yig`ilishida ishtirok etishi va ovoz berishi yig`ilish kun tartibidagi masalalar bo`yicha ovoz berish natijalariga bevosita ta`sir o`tkazib, hal qiluvchi ahamiyatga ega aksiyalar egalari qanday nom bilan ataladi?

147. Minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish bo`yicha mamlakatlar reytingi qaysi tashkilot tomonidan tuziladi va qaysi hisobotda o`z aksini topadi?

148. Moliya tizimining markaziy bo`g`ini?

149. Korporativ boshqaruv va korporativ menejment o'rtasidagi asosiy farq nimada?

150. O'zbekistonda korporativ boshqaruv kodeksining joriy etilishidan ko'zlangan asosiy maqsad qaysi?

151. Yildan yilga aksiyadorlik jamiyatlari soni qisqarishiga nima sabab bo`lmoqda?

152. Qaysi tashkilot korporativ tuzilmalarning naqd pulsiz hisob kitoblarini tashkil etadi?

153. Korporativ tuzilmalar faoliyatida moliyaviy risklarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb

etuvchi tashkilot qaysi?

154. Korporativ tuzilmalar tomonidan qimmatli qog`ozlar emissiyasi va ularni joylashtirish bqaysi tashkilot orqali amalga oshiriladi?

155. Aksiyadorlik jamiyatida yirik bitim deb qaysi holat tan olinadi?

156. Balans qiymati jamiyat sof aktivlarining 15–50 %ini tashkil etsa, yirik bitim bo'yicha qarorni kim qabul qiladi?

157. Korporativ moliyani boshqarish tizimining markaziy bo`g`ini qaysi hisoblanadi?

158. Qaysi ta`minot asosini moliyaviy resurslarni samarali boshqarishga qaratilgan umumiqtisodiy, analitik va maxsus usullar majmuasi tashkil etadi?

159. Ishlab chiqariladigan va sotiladigan mahsulot hajmi, kapital miqdori, kapital miqdori, xodimlar soni umumiy holda nima deb ataladi?

160. Faoliyat ko`lamidan kelib chiqqan holda korporativ tuzilmalar nechi turga bo`linadi?

161. Faoliyat ko`lamidan kelib chiqqan holda korporativ tuzilmalar qaysi turlarga bo`linadi?

162. Rivojlanish bosqichlari va hayotiy sikl fazalari bo`yicha korporativ tuzilmalar nechiga bo`linadi?

163. Kichik biznes korxonalarida moliyaviy boshqaruv bevosita kim tomonidan amalga oshiriladi?

164. Biznesda mablag`larni turli xil aktivlar, korxonalar va faoliyat turi bo`yicha taqsimlash lozimligi qaysi konsepsiyaga asoslanadi?

165. Qaysi konsepsiya ikki ishtirokchi o`rtasidagi munosabatda ularning birining o`z funksiyalarini boshqa shaxsga o`tkazishni ifodalaydi?

166. Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida korporativ siyosatning asosiy yo`nalishlari qaysilar?

167. Har qanday moliyaviy munosabatning asosida nima yotadi?

168. Aksiyadorlik jamiyatining ta`sis hujjati nima?

169. MCHJ ishtirokchilarning soni bo`yicha talab qanaqa?

170. Korporativ moliyaviy siyosatda kapital bahosini aniqlashda e`tibor qaratiladigan eng asosiy jihatlar qaysilar?

171. Korporativ tuzilmalar moliyaviy munosabatlarini qanday guruhlar asosida tasniflash mumkin?

172. Aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitali bevosita nimalar yordamida shakllantiriladi?

173. Hozirgi kunda mamlakatimizda aksiyalarning nominal qiymati qanchadan ortiq bo`lishi mumkin emas?

174. 2014-yilgacha mamlakatimizda aksiyalarning nominal qiymati bo`yicha chegara qancha bo`lgan?

175. Xususiy kapitak miqdori to`g`ri ko`rsatilgan qator qaysi?

176. Korporativ obligatsiyalar bo`yicha kapital bahosini aniqlashda e`tiborg olinadigan jihatlar qaysilar?

177. IPO (initial public offering) ma`nosi nima?

178. Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan aksiyalarni joylashtirish usullari qaysilar?

179. Muvaffaqiyatli o`tkazilgan IPO (aksiyalarni ochiq tartibda birlamchi joylashtirish) amaliyotlarida eng yuqori ko`rsatkich qaysi kompaniyaga tegishli?

180. IPO (aksiyalarni ochiq tartibda birlamchi joylashtirish) o`tkazishda qimmatli qog`ozlar bozorini tartibga solish bo`yicha vakolatli davlat organi ishtiroki nima bilan belgilanadi?

181. Bir kompaniya boshqa kompaniya ustidan nazorat o`rnatsa va o`zini ushbu kompaniyaning yangi xo`jayini deb e`lon qilsa, bu nima deb ataladi?

182. Moliyaviy tahlilchilar kompaniyalar o`rtasidagi integratsiyadan kelib chiqqan holda korporativ birlashish va qo`shib olishlarni nechi tipga ajratadilar?

183. Bitta tarmoqda faoliyat ko`rsatuvchi kompaniyalarning o`zaro birlashishi yoki qo`shib olinishi nima deb ataladi?

184. Faoliyat yo`nalishlari o`zaro bog`liq bo`lmagan kompaniyalarning biri ikkinchisini qo`shib olishi nima deb ataladi?

185. Bitta davlatda joylashgan kompaniyalarning o`zaro birlashishi nima deb ataladi?

186. Turli davlatlarda joylashgan kompaniyalarning o`zaro birlashishi nima deb ataladi?

187. ….. – qo`shib olish bilan deyarli bir xil, lekin unign natijasida yangi kompaniya tashkil etiladi. Nuqtalar o`rnini to`ldiring?

188. Yuridik va xo`jalik faoliyatini yuritish bo`yicha mustaqil korporativ tuzilmalarning vaqtinchalik birlashmasi deb nimaga aytiladi?

189. Ishlab chiqarish hajmi, tovarlar narxi, savdo shartlari, bozorlarni cheklash masalalari bo`yicha kelishib olish maqsadida faoliyat yo`nalishi bo`yicha bir-biriga yaqin bo`lgan mustaqil xo`jalik subyektlarining birlashmasi qanday nomlanadi?

190. Investitsion loyihani amalga oshirishga halaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan risklar yig`indisi nima deb ataladi?

191. Hozirgi paytda investorlar ko`proq nimalarga e`tibor bermoqda?

192. Korxona mablag`larining kapitali qaysi guruhlarga bo`linadi?

193. Yirik bitim jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig`ilishi yoki kuzatuv kengashi ushbu bitim bo`yicha qaror qabul qilganidan keyin kim tomonidan amalga oshiriladi?

194. Aksiyadorlik jamiyatining yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga egalik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar, kuzatuv kengashining a`zosi, jamiyat direktorining yoxud jamiyat boshqaruvi a`zosining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan qanday shaxslar hisoblanadi?

195. Bir yoki bir nechta yuridik shaxs faoliyatini tugatib, ularning huquq va majburiyatlarini boshqa yuridik shaxsga o`tkazish nima deb e`tirof etiladi?

196. Qo`shib olish amaliyoti qanday hujjat asosida amalga oshiriladi?

197. Aksiyadorlik jamiyatlari tugatilishida chiqarilgan aksiyalar qaysi hujjatga asosan bekor qilingan hisoblanadi?

198. Bir yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo`shib olinayotganda qo`shib olinayotgan yuridik shaxsning barcha huquq va majburiyatlari qaysi hujjatga muvofiq qo`shib olayotgan yuridik shaxsga o`tadi?

199. Aksiyadorlik jamiyatlari qayta tashkil etish to`g`risida qaror qabul qilingan sanadan e`tiboran necha Kundan kechiktirmay o`z kreditorlarini bu haqda yozma shaklda xabardor etishi shart?

200. Qarz munosabatlarini anglatuvchi qimmatli qog`oz nima deyiladi?

**Kafedra mudiri i.f.n., dosent** DEVONXONA **Tursunov F.U.**